



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH HUDUDIY K E N G A S H I

150100, Farg'ona sh., Alisher Navoiy k., 17-uy, tel: (73) 244-22-59, e-mail: kengashfar@gmail.com, www.farkengash.uz

20 25-yil 18 - fevral

I -son

Farg'ona sh.



“TASDIQLAYMAN”

Korrupsiyaga qarshı kurashish
viloyat hududiy kengashi raisi

X.A.Komilov

» fevral 2025 yil.

Korrupsiyaga qarshi kurashish viloyat hududiy kengashining majlisi
BAYONI

“ ” fevral 2025 yil

Farg'ona shahar

Raislik qiluvchi:

- X.Komilov - Korrupsiyaga qarshi kurashish viloyat
hududiy kengashi raisi.

Qatnashganlar:

- Korrupsiyaga qarshi kurashish viloyat hududiy kengashi
a'zolari (*ro'yxat bo'yicha*), tegishli boshqarma va
tashkilot rahbarlari hamda viloyatdagi ommaviy axborot
vositalari vakillari.

KUN T A R T I B I :

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy
Kengashining 2025 yil 15 fevraidiagi 17-sonli bayonnomasi ijrosini tashkil etish
to'g'risida.

2. Viloyatda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida prokuratura
organlari tomonidan 2024 yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish viloyat hududiy kengashining
2024 yilning 2-yarim yilligiga mo'ljallangan ish rejasi bajarilishi to'g'risida.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish viloyat hududiy kengashining
2025 yilning 1-yarim yilligiga mo'ljallangan ish rejasi loyihasi hamda hududiy
kengash va uning huzuridagi ishehi organ tarkiblarini tasdiqlash to'g'risida.

(X.Komilov, B.Ismoilov, F.Nugmanov, Sh.Karimov..... X.Komilov)

Yig‘ilishni Korrupsiyaga qarshi kurashish viloyat hududiy kengashi raisi X.A.Komilov kirish so‘zi bilan ochdi va olib bordi.

Yig‘ilishda, kun tartibidagi **birinchi masala** ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy Kengashining 2025 yil 15 fevraldagi 17-sonli bayonnomasi o‘qib eshittirildi.

Xususan, o‘tgan davr mobaynida sohaga oid 10 ga yaqin qonun qabul qilingan, korrupsiya hamda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga qaratilgan yangi “tergov sudyasi” instituti joriy etilgan.

Olib borilgan sa’y-harakatlar natijasida respublikada 2024 yilda 5 716 ta korrupsiyaviy jinoyat ro‘yxatga olinib, ular soni o‘tgan yilga nisbatan 24,1 foizga kamaygan.

Biroq amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, davlat organlari va tashkilotlarida, shu jumladan, maktabgacha va maktab ta’limi va sog‘liqni saqlash sohasida ushbu jinoyatlar salmog‘i yuqoriligidcha qolmoqda.

Milliy kengash majlisida respublikada korrupsiyaga oid jinoyatlarning oldini olish hamda ularga imkon bergen omiliarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar muhokama qilingan.

Dastlab tibbiyot, so‘ngra maktabgacha va maktab ta’limi hamda oliy ta’lim sohalaridagi korrupsiyaviy omillar tahlil qilinib, Sog‘liqni saqlash, Maktabgacha va maktab ta’limi hamda Oliy ta’lim vazirliklarining axboroti eshitilgan.

Xususan, 2023 yil davomida sog‘liqni saqlash tizimda 554 nafar (2022 yilda – 733 nafar) xodim jinoiy javobgarlikka tortilgan, ularning 451 nafari yoki 82 foizi korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir qilganlikda ayblangan.

Jinoyat sodir qilgan tibbiyot xodimlarining asosiy ulushi Samarqand (60 nafar), Qashqadaryo (59 nafar), Farg‘ona (58 nafar), Andijon (56 nafar) va Namangan (52 nafar) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida 2023 yil va 2024 yilning birinchi yarmida vazirlik tizimidagi 947 nafar xodim korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilgan. Ularning 227 nafarini maktabgacha va 720 nafarini umumta’lim maktablari tizimidagi tashkilotlar xodimlari tashkil etgan.

Tizimda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarini to‘g‘ri sarflanishi jarayonidagi tizimli kamchilik va nuqsonlar hamda korrupsiyaviy omillarni to‘liq bartaraf etish choralar ko‘rilmaganligi oqibatida mazkur toifadagi jinoyat ishlari bo‘yicha jami 43,2 mlrd. so‘m byudjet mablag‘lari talon-toroj qilinganligi aniqlanib, 408 nafar soha xodimlari javobgarlikka tortilgan.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida esa 2023 yilda 106 nafar xodim jinoiy javobgarlikka tortilgan, ularning 97 nafari yoki 92,3 foizi korrupsiyaviy jinoyatlar sodir qilgan. Shulardan 39 nafari kollej va liseylarda, 67 nafari oliy o‘quv yurtlarida xizmat qilgan.

Davlat moliyaviy nazorati departamenti tomonidan vazirlik tizimida o‘tkazilgan 223 ta tekshirishlarda jami 69,5 mlrd. so‘mlik moliyaviy qonun buzilishi holatlariga yo‘q qo‘yilganligi aniqlanganligi ta’kidlab o‘tilgan.

Kun tartibidagi **ikkinci masala** ya’ni viloyatda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida prokuratura organlari tomonidan 2024 yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan viloyat prokurori, adliya katta maslahatchisi B.Ismoilovning axboroti eshitildi.

Xususan, 2024 yilning 12 oyi (keyingi o‘rinlarda – hisobot davri) da viloyat

prokuraturasi organlari tomonidan jami 695 nafar shaxslarga nisbatan korruption jinoyatlar sodir etganligi uchun 500 ta jinoyat ishlari qo‘zg‘atilib, jazo muqarrarligini ta’minlash uchun sudlarga yuborilgan.

O‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, korruption jinoyat sodir etganlarning 21 (shundan 7 nafari mansabdorlar) nafari huquqni muhofaza qiluvchi organlar, 2 nafari sud tizimi, 2 nafari advokatura, 15 (2) nafari bank tizimi, 8 (1) nafari soliq tizimi, 1 (1) nafari yoshlar ishlari agentligi, 5 (2) nafari iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi, 4 nafari kambag‘ailikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimi, 5 (1) nafari qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimi, 8 (3) nafari suv xo‘jaligi vazirligi tizimi, 39 (15) qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tizimi, 6 (1) transport vazirligi tizimi, 13 (1) energetika vazirligi tizimi, 7 nafari tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimi, 2 (1) ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tizimi, 36 (4) nafari sog‘liqni saqlash vazirligi tizimi, 49 (30) nafari maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimi, 7 (2) nafari oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimi, 2 (1) nafari sport vazirligi tizimi va 393 (1) nafari xo‘jalik boshqaruva tashkilotlari tizimi xodimlari tomonidan sodir etilgan.

Korrupsion jinoyat sodir etgan mansabdar shaxslarning 16 nafari viloyat va 60 nafari tuman-shahar darajasidagi mansabdar shaxslar hisoblanadi.

Misol uchun, viloyat prokuraturasi uyushgan jinoyatchilik va korrupsiya qarshi kurashish bo‘limi tomonidan “Farg‘ona viloyati hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJning “Korrupsiyaga qarshi kurashish kompleks nazorat bo‘limi” boshlig‘i A.Xolmatov va AJning xodimlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i U.Mirzayevlarga nisbatan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergov harakatlari olib borilgan.

Amiqlanishicha, U.Mirzayev va A.Xolmatov tomonidan “Farg‘ona viloyati hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJning 2024 yil 9 oyidagi faoliyati yakuni yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilish bayoniga asosan Yozyovon tumani elektr tarmoqlari korxonasi bosh muxandisi M.G‘ofurovga “Xayfsan” intizomiy jazo chorasi qo‘llanilganligini bilgani holda, tekin boylik orttirishni maqsad qilib, g‘arazli niyatlarda, mansab soxtakorligiga yo‘l qo‘yib, go‘yoki M.G‘ofurovni egallab turgan lavozimidan ozod qilish haqida 15.10.2024 yildagi “Farg‘ona viloyati hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ bosh direktorining soxta buyrug‘iri tayyorlab, bu orqali bosh muhandis M.G‘ofurovni ularga yordam so‘rab murojaat qilishiga erishib, M.G‘ofurovga lavozimiga qayta tiklab berishni va’da qilib, evaziga 2000 AQSH dollari berishini talab qilishgan.

Bundan norozi bo‘lgan, M.G‘ofurov 29.10.2024 yilda vakolatli tashkilotlarga ariza bilan murojaat qilib, U.Mirzayev va A.Xolmatov undan noqonuniy ravishda pul talab qilayotganligini ma’lum qilib, ularga nisbatan qonuniy chora ko‘rishni so‘ragan.

Uning arizasiga asosan 01.11.2024 yilda o‘tkazilgan tezkor tadbirda, “Farg‘ona hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ xodimlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i U.Mirzayev xizmat mavqeidan foydalanib, firibgarlik yo‘li bilan, ariza muallifi M.G‘ofurovning ishonchiga kirib, uni lavozimiga qayta tiklab berishni va’da qilib, o‘zi talab qilib kelgan 1.000 AQSH dollarini jinoiy sherigi AJning “Korrupsiyaga qarshi kurashish kompleks nazorat” bo‘limi boshlig‘i A.Xolmatov orqali Yozyovon tumani, Xonobod qishlog‘idagi o‘ziga qarashli dala shiyponida olishgan vaqtida A.Xolmatov ashyoviy dalillar bilan ushlangan.

Sohalar kesimidagi korruption jinoyatlar oqibatida davlat va jamiyat

manfaatlariga 214,4 mlrd. so‘m miqdorida moddiy zarar yetkazilib, tergov jarayomida ushbu zararning 135,7 mlrd. so‘mi yoki 63 foizi undirilgan.

Tergov qilingan jinoyat ishlaridan mansabdorlik jinoyatlari bo‘yicha davlat va jamiyat manfaatlariga 20,4 mlrd. so‘m miqdorida moddiy zarar yetkazilib, tergov jarayonida ushbu zararning 15,9 mlrd. so‘mi yoki 78 foizi undirilishi ta’minlangan.

Shuningdek, tergov qilingan jinoyat ishlari bo‘yicha 213,9 mlrd. so‘mlik byudjet mablag‘lari talon - toroj qilinganligi aniqlanib, 135,2 mlrd. so‘mi yoki 63 foizi undirilishi ta’minlangan.

Korrupsion jinoyatlarni sodir etgan mansabdor shaxslarning 53 nafari o‘zgalar mulkini talon-taroj qilish, 6 nafari firibgarlik, 5 nafari mansabini suiste’mol qilish, 9 nafari pora olish, 1 nafari pora berish jinoyatlari tashkil qilgan.

Jumladan, maktab va maktabgacha ta’lim tizimida ham mansabdorlik va korrupsion jinoyatlarning sodir etilishida yildan yilga ortib bormoqda.

Misol uchun, viloyat prokuraturasi uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomomidan So‘x tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi mansabdor shaxslari va boshqalarga nisbatan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergov harakatlari olib borildi.

O‘tkazilgan tergov harakatlari davomida, 2022-2023 yiliarda mahsulot yetkazib beruvchilarga amalga oshirilgan to‘lovlар evaziga sotib olingan oziq-ovqat mahsulotlarini maktabgacha ta’lim tashkilotlarining oziq-ovqat hisobotlariga kirim qilinishi tekshirilganda, 32 ta mahsulot yetkazib beruvchi ta’minotchi korxonalardan olinganligi aks ettirilgan (xisob-fakturalar asosida) 8 295 149,2 ming so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari bo‘lim tasarrufidagi 26 ta Maktabgacha ta’lim tashkilotlari oylik xisobotlarida aks ettirilmasdan, bo‘limning markazlashgan buxgalteriya xisobotlarida aks ettirilib, asossiz kirim qilingan holda xarajatga chiqarilganligi aniqlangan.

Mazkur holatlar yuzasidan So‘x tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i G.Usmonova, bosh hisobchi B.Marfonova nisbatan JKning tegishli moddalari bilan ayblov e’lon qilinib, qamoq ehtiyot chorasi qo‘llanilgan. Ushbu jinoyat ishi doirasida yana 9 nafar shaxslar ayblangan.

Viloyat bo‘yicha sodir etilgan korrupsion jinoyatlarning tahliliga ko‘ra, Farg‘ona (77), Qo‘qon (45) va Marg‘ilon (34) shaharlarida mazkur toifadagi jinoyatlar hamon yuqoriligidcha qolmoqda.

Viloyat prokuraturasi organlari tomonidan korrupsion jinoyatlar o‘sgan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimi, Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tizimi, Suv xo‘jaligi vazirligi tizimi, Energetika vazirligi tizimi, Soliq tizimi va boshqa tashkilotlarda **“Jinoyat jazosiz qolmaydi”** mavzusida davra suhbatlari va **“Korrupsiya kelajakka tahdid”** mavzusida seminar mashhg‘ulotlari muntazam ravishda o‘tkazilishi ta’minlangan.

Bundan tashqari, viloyat hokimligi va viloyat prokuraturasi tomonidan hududlardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlariga oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berilishida aniqlangan korrupsion holatlar va ularga yo‘l qo‘ymaslik, sifatlari mahsulotlar yetkazib berish borasida ham tanqidiy yig‘ilishlar o‘tkazib keltingan.

Targ‘ibot jarayonlarida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoq vakillari, jurnalist va blogerlar bilan o‘zaro hamkorlik o‘rnatalib, **“Korrupsiya illatiga qarshi birgalikda kurashamiz”** g‘oyasi asosida olib borilgan targ‘ibot-tashviqot tadbirlarining ta’sirchanligiga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi

Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 yildagi “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 829-sonli Qarori, Bosh prokurorning 30.09.2021 yildagi 251-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida, Farg‘ona viloyati prokurori tomonidan 02.10.2021 yilda Maxsus komissiya tashkil etilgan.

Maxsus komissiya tomonidan hisobot davrida viloyat prokuraturasi organlariga korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergenligi va unga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashganligi uchun 4 nafar fuqarolar viloyat prokurorining tegishli buyrug‘i bilan “Esdalik sovg‘a va tashakkurnoma”lar bilan taqdirlanganlar.

Shuningdek, viloyat prokuraturasi tomonidan Qo‘qon shahri va Dang‘ara, Furqat, Beshariq va O‘zbekiston hamda Farg‘ona tumanlarida, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda mahalla uyushmalari hamda oila va xotin-qizlar bo‘limlari rahbarlari hamda ishchi xodimlari, shuningdek, mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari va “mahalla yettiligi” uchun korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar, pora olish va berish holatlari bo‘yicha javobgarlik muqarrarligini targ‘ib etishga qaratilgan seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazilgan.

Bundan tashqari, “**Korrupsiya kelajakka tahdid**”, “**Davlat fuqarollk xizmatchllari-korrupsiyaga qarshi**” mavzusida seminar mashg‘ulotlari o‘tkazilib, tushuntirish va ogohlantirish tadbirlari kuchaytirilib, viloyat prokuraturasi organlari tomonidan muntazam ravishda targ‘ibot tadbirlari o‘tkazilib kelinmoqda.

Viloyatdagi korrupsiya holatlarini tizimli tahlil qilinib, korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan sohalar, tashkilotlarning ko‘rsatgichlari orqali ushbu soxalarda sodir etilgan har bir jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlari aniqlanib, ushbu jinoyatlarni kelgusida yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan jinoyat ishi yakuni yuzasidan kirltilgan taqdimnomalarda prokuratura hodimlari to‘liq ishtirok etgan holda muhokama qilib kelingan.

Bundan tashqari, hisobot davrida viloyat prokuraturasi, Departament va boshqa HMQO xodimlari ishtirokida poraxo‘rlik jinoyatlari bo‘yicha dastlabki tergov va tezkor qidiruv tadbirlari o‘tkazishdagi muammolar hamda ushbu turdagji jinoyatlarni oldini olish maqsadidagi ishlar xususida 20 dan ortiq seminar mashg‘uloti o‘tkazilgan.

Xususan, viloyat prokururasining tegishli tarmoqlari, viloyat IIB hamda tuman (shahar) ichki ishlar bo‘limlari rahbarlari va mutasaddilari ishtirokida korruption jinoyatlarni sodir etmaslik, pora olish va berish, firibgarlik yo‘li bilan pora berishga dalolat qilish jinoyatlarining og‘ir oqibatlari, mazkur turdagji jinoyatlarning kelib chiqishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish, unga yo‘l qo‘ymaslik borasida tushuntirishlar olib borilgan.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan Internet tarmog‘ida e’lon qilingan hudud va sohaga doir xabarlar kunlik monitoring qilinib, korrupsiyaga oid xabarlarni tezkor ravishda ko‘rib chiqish va munosabat bildirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borilmoqda.

Kun tartibidagi **uchinchchi masala** yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish viloyat hududiy kengashi (keyingi o‘rinlarda - hududiy kengash) kotibi Sh.Karimovning hududiy kengashning 2024 yilning 2-yarim yilligiga mo‘ljallangan ish rejasi bajarilishi holati yuzasidan axboroti tinglandi.

Hududiy kengashning 2024 yilning 2-yarim yilligiga mo‘ljallangan ish rejasi

39 banddan iborat bo‘lib, barcha bandlar bajarilishiga erishilgan.

Xususan, yoshlar o‘rtasida korrupsiya har bir jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishini izdan chiqaruvchi, davlat va jamiyatning rivojiga jiddiy putur yetkazadigan xavfli jinoyat hisoblanishini, ular o‘rtasida korruption xolatlarini oldini olish hamda huquqiy savodxoniklarini oshirish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona viloyat boshqarmasi, Adliya boshqarmasi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi, Xalq ta’limi boshqarmasi, Ichki ishlari boshqarmalari bilan hamkorlikda viloyatdagi umumi o‘rta ta’lim muassasalarida “**Yoshlar korrupsiya qarshi**”, “**Yoshlar Yangi O‘zbekiston poydevori**” shiorlari ostida jami 14 062 nafar umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quv yoshlari o‘rtasida uchrashuvlar, davra suxbatlari tashkil etildi.

Viloyatdagi 1 063 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarida mahalla yoshlar yetakchisi, profilaktik inspektori hamda huquqni muhofaza qiluvchi tashkilot xodimlari boshchiligidagi “Korrupsiya taraqqiyot kushandasasi” shiori ostida uchrashuvlar, o‘quv seminarlar, davra suxbatlari tashkil etildi. O‘tkazilgan tadbirlar davomida jami 9 150 nafar uyushmagan yoshlar qamrab olindi.

Bundan tashqari, yoshlar o‘rtasida “**Korrupsiya yo‘q deylik**” va “**Yoshlar korrupsiya qarshi**” shiorlari ostida aksiya va fleshmoblar tashkil etish.

#BizKorrupsiyaga Qarshimiz xeshtegini ommalashtirish orqali targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish maqsadida “**Korrupsiya yo‘q deylik**” va “**Yoshlar korrupsiya qarshi**” mavzularida ochiq darslar va davra suxbatlari tashkil etildi, o‘quvchi yoshlar tomonidan tayyorlangan videorooiliklar va sahna ko‘rinishlari ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritib borildi.

Mahalla uyushmalari hamda oila va xotin-qizlar bo‘limlari rahbarlari hamda ishchi xodimlari, shuningdek, mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari va «mahalla yettiligi» uchun korrupsiya oid huquqbazarliklar, pora olish va berish holatlari bo‘yicha javobgarlik muqarrarligini targ‘ib etish maqsadida seminarlar va ochiq muloqotlar o‘tkazilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faxriylari kengashi Farg‘ona viloyat hududiy bo‘linmasi tomonidan “Korrupsiyasiz kuchli fuqarolik jamiyati sari” mavzusida 50,0 mln so‘m, O‘zbekiston Xakamlik sudlari Assosiatsiyasi Farg‘ona viloyat vakolatxonasi tomonidan “Korrupsiya - jamiyat taraqqiyotining kushandasidir” mavzusida 70,0 mln so‘mlik grant mablag‘lari yutilgan.

Adliya boshqarmasi tomonidan hamkor tashkilotlar bilan birgalikda “**Korrupsiya – bu har bir jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishini izdan chiqaruvchi eng xavfli jinoyatdir**” mavzusida ijtimoiy rolik tayyorlandi.

“Yuksalish” harakati Farg‘ona viloyati bo‘linmasi tomonidan “Korrupsiyaga qarshi kurashish viloyat kengashining 2024 yil ikkinchi yarim yillikka mo‘ljallangan ish rejasi” ijrosini ta’minalash yuzasidan Farg‘ona viloyati aholisi orasida korrupsiya nisbatan keng jamoatchilik fikrini o‘rganish, davlat xizmatchilarining korrupsiya nisbatan munosabatini aniqlash maqsadida jamoatchilik o‘rtasida ijtimoiy so‘rovnoma asosida tadqiqot o‘tkazildi.

Tadqiqotda viloyat aholisi vakillari, ijtimoiy soxa vakillari, nodavlat notijorat tashkilotlar xodimlari orasidan jami 100 ta respondentlar ishtiroy etdilar.

Korrupsiya bilan bog‘liq sodir etilgan jinoyat ishlarini sud majlisida ko‘rish jarayonlarini televideniyalarda yoritib borilishini tashkil etildi.

Viloyat teleradiokanalida viloyatda korrupsiya qarshi murosasiz olib

borilayotgan ishlarni “Farg‘ona 24”, “Yangiliklar” informasiy teleradiodasturlari orqali tezkor tadbirlar aks etgan lavhalar orqali namoyish etib borilmoqda.

Kun tartibidagi **to‘rtinchи masala** yuzasidan hududiy kengash kotibi Sh.Karimov tomonidan hududiy kengashning 2025 yilning 1-yarim yilligiga mo‘ljallangan ish rejasi loyihasi, shuningdek, hududiy kengash va uning huzuridagi ishchi organ tarkiblari bilan tanishtirib o‘tildi.

Hududiy kengashning 2025 yilning 1-yarim yilligiga mo‘ljallangan ish rejasi loyihasi 26 banddan iborat bo‘lib, hududiy kengash a’zolarining takliflari asosida shakllantirilgan.

Xususan, ish reja doirasida targ‘ibot va tashviqot tadbirlarini amalga oshirish, bunda davra suhbatlari, seminarlar, anjumanlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etish, amaliy chora-tadbirlar doirasida ko‘rik-tanlovlari, press-turlar va boshqa tadbirlarni tashkil etish, ochiqlikni ta’minlashga mas’ul xodimlarni o‘qitish, bilim va malakatlarini oshirib borish, fuqarolar o‘rtasida targ‘ibot, so‘rov va sohaga oid tadqiqotlar o‘tkazish hamda ommaviy-axborot vositalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish tadbirlarini amalga oshirish rejalashtirllgan.

Viloyatda korruption holatlarga barham berish, bu borada jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish, hududiy kengash faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida, hududiy Kengash yig‘ilishi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Korruptionsiyaga qarshi kurashish Milliy Kengashining 2025 yil 15 fevraldaggi 17-sonli bayonnomasi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Milliy Kengashining mazkur bayonnomasi bilan, Milliy kengashning 2025 yilning 1-yarim yilligiga mo‘ljallangan ish rejasi hamda Korruptionsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlarining tarkiblari tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyatda korruptionsiyaga qarshi kurashish borasida prokuratura organlari tomonidan 2024 yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan viloyat prokurori, adliya katta maslahatchisi B.Ismoilovning axboroti qabul qilinsin.

Bu borada, viloyatda prokuratura organlari tomonidan samarali va salmoqli ishlar (tadbirlar) amalga oshirilganligi **alohida ta’kidlab o‘tilsin**.

4. Hududiy kengashning 2024 yilning 2-yarim yilligiga mo‘ljallangan ish rejasi bajarilishi yuzasidan hududiy Kengash kotibi Sh.Karimovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda, hududiy kengashning 2024 yilning 2-yarim yilligi davridagi faoliyati qoniqarli deb topilsin.

5. Quyidagilar:

Korruptionsiyaga qarshi kurashish viloyat hududiy kengashining 2025 yilning 1-yarim yilligiga mo‘ljallangan ish rejasi 1-ilovaga muvofiq;

Hududiy kengashning yangilangan tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

Hududiy kengash faoliyatini yanada samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi hududiy kengash huzuridagi ishchi organi (keyingi o‘rinlarda – ishchi organi) tarkibi 3-ilovaga muvofiq;

2025 yil davomida hududiy Kengash yig‘ilishlarida korruptionsiyaga qarshi

kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hududiy davlat organlari rahbarlari hamda hududiy Kengash a’zolarining hisobotlarini eshitib borish reja-jadvali 4-ilovaga muvofiq **tasdiqlansin**.

6. Hisobot davrida viloyatda jami 695 nafar shaxslarga nisbatan korruption jinoyatlar sodir etganligi uchun 500 ta jinoyat ishlari qo‘zg‘atilib, jazo muqarrarligini ta’minlash uchun sudlarga yuborilganligi, xususan, korruption jinoyat sodir etganlarning 21 (shundan 7 nafari mansabdorlar) nafari huquqni muhofaza qiluvchi organlar, 2 nafari sud tizimi, 2 nafar advokatura, 15 (2) nafari bank tizimi, 8 (1) nafari soliq tizimi, 1 (1) nafari yoshlar ishlari agentligi, 5 (2) nafari iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi, 4 nafari kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimi, 5 (1) nafari qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimi, 8 (3) nafari suv xo‘jaligi vazirligi tizimi, 39 (15) qurilish va uy-joy communal xo‘jaligi vazirligi tizimi, 6 (1) transport vazirligi tizimi, 13 (1) energetika vazirligi tizimi, 7 nafari tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimi, 2 (1) ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tizimi, 36 (4) nafari sog‘liqni saqlash vazirligi tizimi, 49 (30) nafari maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimi, 7 (2) nafari oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimi, 2 (1) nafari sport vazirligi tizimi va 393 (1) nafari xo‘jalik boshqaruva tashkilotlari tizimi xodimlari tomonidan sodir etilganligi, ushbu korruption jinoyatlar 16 nafar viloyat va 60 nafar tuman-shahar darajasidagi mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilganligi **alohida ko‘rsatib o‘tilsin**.

7. Markaziy bank bosh boshqarmasi (Sh.Do‘saliyev), Soliq boshqarmasi (M.Mamatxonov), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.G‘aniyev), Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (J.Jumanov), Qishloq xo‘jaligi (D.Fozilov), “Sirdaryo-So‘x” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (M.Tursunov), Qurilish va uy-joy communal xo‘jaligi boshqarmasi (B.Rahimov), Transport boshqarmasi (B.Safarov), “Farg‘ona elektr tarmoqlari hududiy korxonasi” AJ (A.Saydaliyev), “Xududgaz Farg‘ona” gaz ta’minoti filali (Sh.Abdumajidov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi Farg‘ona mintaqaviy inspeksiyasi (J.Qo‘chqo‘raliyev), Ekologiya, atrof-muhitni muhofazasi va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (B.Jumanov), Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov), Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (B.Primqulov), O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasilar vazirligi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi (T.Boymatov), Sport boshqarmasi (N.Xakimov)lar:

- bir hafta muddatda ushbu qonunbuzilish holatlari va uning kelib chiqish sabablarini huquq-tartibot idoralari vakillarini jalb qilgan holda (hamkorlikda) chuqr tahlil qilib, tanqidiy majlis tashkil etsin;

- kelgusida mazkur salbiy holatlarni oldini olish bo‘yicha 2025 yil uchun alohida chora-tadbirlar rejasini tasdiqlasin;

- amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hududiy kengash hamda viloyat prokuraturasiga axborot kiritsin.

8. Hududiy kengash a’zolarining 2025 yilda viloyatdagi qurilish, sog‘liqni saqlash, maktabgacha va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohalarida **“Korrupsiyasiz soha”** loyihasini amalga oshirish yuzasidan takliflari ma’qullansin.

Bunda,

Qurilish va uy-joy communal xo‘jaligi boshqarmasi (B.Rahimov), Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov), Sog‘liqni saqlash

boshqarmasi (B.Primqulov), O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasilar vazirligi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi (T.Boymatov) hamda oliy ta’lim muassasalari rahbarlari **bir xafta muddatda** viloyatdagi huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikda tizim (soha) da “**Korrupsiyasiz soha**” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi (yo‘l xaritasi) ishlab chiqib, ijroga qaratsin.

Har chorak yakuni bilan “**Korrupsiyasiz soha**” loyihasi samaradorligi va natijadorligini tanqidiy-tahlil qilib borsin.

9. Viloyatdagi barcha davlat idoralari, boshqarma va tashkilotlar hamda jamoat birlashmalari rahbarlari rahbarlik qilayotgan tizim (soha)da qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik va huquqburzuliklarni oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida nazorat targ‘ibot va nazorat tadbirlarini olib borsin.

Bunda, tizim (soha)da aniqlangan salbiy holatlarni kelib chiqish sabab va omillarini chuqur o‘rganib, taxlil qilgan holda, kelgusida ushbu holatlarni oldini olish bo‘yicha qat’iy va ta’sirchan chora-tadbirlar ko‘rib borsin, bu borada huquq-tartibot idoralari bilan samarali hamkorlik yo‘lga qo‘ysin, bu borada huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikda ishchi-xodimlarni huquqiy malakasini oshirib borish maqsadida qisqa muddatli o‘quv-seminarlar va ochiq muloqotlar tashkil etib borish tavsiya etilsin.

10. Hududiy Kengashi a’zolari:

Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy Kengashi, Agentlik hamda hududiy kengashning ijro hujjatlarini (*majlis bayoni, chora-tadbirlar rejasi, topshiriq va ko‘rsatma xitlari va boshqa..*) ijrosini o‘z vaqtida, to‘liq va tizimli ta’minalash, shuningdek, o‘z tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlari yuzasidan har oy yakuni bo‘yicha keyingi oyning 10 sanasiga qadar (yoki ijro hujjatida belgilangan muddatlarda) asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda hududiy kengashga ma’lumot taqdim etib borish vazifalari yuklansin.

hududiy kengashning tegishli davrlar uchun tasdiqlangan ish rejasida belgilangan vazifalarni hamkor tashkilotlar bilan birgalikda o‘z vaqtida, sifatli va tizimli tashkil etish;

hududiy kengash faoliyatini reyting baholash natijalaridan kelib chiqib, bu borada ishlarning samaradorligini reyting baholash ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha aniq choralarini ko‘rsin va tegishli takliflarni taqdim etsin;

joylarda korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlari ochiqligini ta’minalash jarayonlariga nodavlat notijorat tashkiloti vakiliari va ommaviy axborot vositalarini keng jalb qilgan holda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida Oliy Majlis huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondlari tomonidan e’lon qilinadigan Davlat grantlari ajratish uchun tanlovlarda muntazam ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi mavzular kiritib borsin;

har oyda o‘z sohalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar haqida tahliliy va statistik ma’lumotlarni kengash kotibiga taqdim etib borish, soha va hududdagi vaziyatga salbiy ta’sir etuvchi muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritib borsin;

har yarim yilda o‘zlar mas’ul sifatida biriktirilgan reyting mezonlari bandlari bo‘yicha Kengash kotibiga ma’lumot berib borsin;

Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy Kengashi, Agentlik hamda hududiy

kengashning ijro hujjatlarini (*majlis bayoni, chora-tadbirlar rejasi, topshiriq va ko'rsatma xitlari va boshqa..*) ijrosini o‘z vaqtida, to‘liq va tizimli ta’minlash, shuningdek, o‘z tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlari yuzasidan har oy yakuni bo‘yicha keyingi oyning 10 sanasiga qadar (yoki ijro hujjatida belgilangan muddatlarda) asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda hududiy kengashga ma’lumot taqdim etib borsin.

11. Ishchi organi a’zolari hududiy kengash faoliyatini yanada samarali tashkil etish, bu borada hududiy kengashning Nizom asosida belgilangan maqsadlariga erishishi, yuklatilgan vazifa va majburiyatlarini bajarishi hamda huquqlaridan foydalanishida ko‘maklashish maqsadida quyidagi:

- hududiy kengashning har yarim yillik ish rejasi loyihasini ishlab chiqish, uning ijrosini nazorat qilish, shuningdek hududiy kengashning kundalik faoliyatini tasdiqlangan rejaga muvofiq tashkil qilish;

- viloyatdagi davlat idoralari, mahalliy davlat hokimiysi organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda Davlat dasturining ijrosi yuzasidan monitoringni amalga oshirish va nazorat qilish;

- Milliy kengash va Hududiy kengash tomonidan qabul qilgan qarorlar bo‘yicha axborotlarni jamlash va umumlashtirish, hududiy kengash kotibi va raisiga tegishli axborot va takliflarni kiritish;

- kelib tushayotgan xat va hujjatlarni ko‘rib chiqish va hududiy kengash vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan qarorlar loyihasini tayyorlashda ko‘maklashish;

- Milliy kengash va Hududiy kengash majlislarga tayyorgarlik ko‘rish;

- korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, bu boradagi faoliyatni takomiliashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash va hududiy kengashga kiritishni tashkil etish ishlarini amalga oshirib borsin.

12. Viloyat Kengashi kotibi (Sh.Karimov) hududiy kengash faoliyati yuzasidan ma’lumotlarni umumlashtirib, Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligiga hisobot beriladigan oyning 5 sanasiga qadar taqdim etib borsin.

13. Viloyat prokuraturasi (B.Ismoilov), Bosh prokuratura huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Farg‘ona viloyati boshqarmasi (U.Normirzayev), Ichki ishlar boshqarmasi (A.Ikramov), Davlat xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi (T.Alimov)ga **bir xaftha muddatda** korrupsiyaviy huquqbuzarliklar ahvoli, hududdagi kriminogen vaziyat, aholining kayfiyatiga ta’sir qiluvchi muammolardan kelib chiqib, eng yuqori salbiy ko‘rsatkich qayd etgan hududni aniqlash, ushbu hududda **“Korruptsiyasiz hudud”** loyixasini amalga oshirish choralarini ko‘rish tavsiya etilsin.

Bunda, tegishli tuman (shahar) hokimliklari bilan hamkorlikda hududda **“Korruptsiyasiz hudud”** loyihasini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi (yo‘l xaritasi) ishlab chiqib, ijroga qaratiladi hamda har chorak yakuni bilan loyiha samaradorligi va natijadorligi tanqidiy-tahlil qilib boriladi.

14. Korruptsiyaga qarshi kurashish, davlat organlari ochiqligini ta’minlash jarayonlariga nodavlat notijorat tashkiloti vakiliari va ommaviy axborot vositalarini keng jalb qilgan holda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, bunda maqsadida Oliy Majlis huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlariini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan e’lon qilinadigan Davlat

grantlari ajratish uchun tanlovlarda muntazam ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi mavzular kiritib boriladi.

15. Viloyat Adliya boshqarmasi (F.Ashmatov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (M.Mirzayev), viloyat teleradiokompaniyasi (I.Halimbekov) va viloyatdagi boshqa teleradiokanal hamda ommaviy axborot vositalarida viloyatda korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlarni aholiga zamonaviy usul va vositalar orqali yetkazish choralarini ko‘rsin.

16. Belgilansinki, **har chorakda** viloyatdagi qurilish, sog‘liqni saqlash, maktabgacha va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohalarida **“Korrupsiyasiz soha”** loyihasi doirasida mas’ul rahbarlarning axborotlarini viloyat Kengashi yig‘ilishlarida muntazam eshitib boriladi.

17. Viloyat Adliya boshqarmasi (F.Ashmatov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (J.Jumanov), “Yuksalish” umummilliy harakatining Farg‘ona viloyati hududiy bo‘linmasi (D.Teshaboyev), Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi (M.Turimov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (M.Mirzayev) korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga qaratilgan aniq maqsadli mavzularda targ‘ibot tadbirlari (*yig‘ilish, davra suhbati, uchrashuvlar, matbuot anjumani, press-tur, brifing*)ni alohida reja-jadval asosida samarali va tizimli tashkil etib borsin.

18. Viloyat hokimligining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi (F.Nugmanov), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining Farg‘ona viloyati filiali (A.Akbarov) bilan birgalikda korrupsiyaviy vaziyatdan yoki xavf-xatarlardan kelib chiqqan holda davlat xizmatchilarining malakasini oshirish tizimini samarali va tizimli yo‘lga qo‘yib borsin.

19. Hududiy kengash a’zolari **har oy yakuni bilan keyingi oyning 5 sanasiga** qadar korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatları yuzasidan tasdiqlangan mezonlar asosida hisobotlarni xududiy kengashga (hududiy kengash kotibiga) o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli, asoslantirilgan hujjatlar asosida taqdim etib borsin.

20. Hududiy kengash kotibi (Sh.Karimov) hududiy kengashi faoliyati samaradorligini yanada oshirish maqsadida viloyatga biriktirilgan Milliy kengash a’zolari bilan yaqindan aloqa va samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘ysin.

Bunda, viloyatga biriktirilgan Milliy kengash a’zolarini hududiy kengashning tegishli davrdagi (choraklik, yarim yillik va yillik) faoliyati yakunlariga bag‘ishlangan yig‘ilishlarda (online yoki offline) ishtirok etishlari uchun taklif qilib borsin.

21. Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi raislari - tuman (shahar) hokimlari mahalliy Kengashlarning sessiyalarini (*yopiq sessiyalar bundan mustasno*) puxta tayyorgarlik ko‘rilgan holda mahalliy telekanallar, internet tarmog‘i, ijtimoiy tarmoqlar orqali onlayn yoritilishini qat’iy tashkil etib borsin.

Bunda, mahalliy hokimliklar hududlardagi mavjud televideniyalar bilan sessiyalarni jonli efirda uzatib borish bo‘yicha hamkorlik memorandumi yoki o‘rnatilgan tartibda shartnomalar tuzish, o‘z imkoniyatidan kelib chiqib hokimlik yoki mahalliy Kengashlarning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanalarida (*misol uchun youtube, facebook instagram va boshqa kanali orqali*) jonli yoritib borish tavsiya etiladi.

22. Barcha tuman (shahar) hokimlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida hududda olib borilayotgan ishlar, jumladan aholida korrupsiyaga nisbatan murosasiz kayfiyatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini hokimlikning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida muntazam yoritib borsin.

23. Hududiy kengash kotibi Sh.Karimov:

Hududiy Kengash faoliyatiga oid ma'lumotlarni har oy yakuni bilan o'tkaziladigan hududiy kengash majlislari muhokamasiga kiritib borish;

Hududiy kengash majlislarida kengash a'zolarini axborotlarini tinglab borish amaliyotini tizimli yo'lga qo'yish vazifalari yuklansin.

24. Belgilansimki, hududiy Kengash faoliyati ustidan deputatlik va jamoatchilik nazoratini o'rnatish maqsadida **har chorak yakuni** bilan Hududiy Kengash faoliyati xalq deputatlari viloyat Kengashining "Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha" doimiy komissiyasi majlislari hamda Kengash sessiyalarida muhokama etib boriladi.

25. Viloyat hokimligi axborot xizmati (M.Sulaymonov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (M.Mirzayev) viloyatdagi telekanallar, bosma va elektron ommaviy axborot vositalari orqali Hududiy kengash faoliyatini keng yoritib borish tavsiya etilsin.

26. Mazkur yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilish Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashi kotibi Sh.Karimov zimmasiga yuklansin.

**Bayon yozib boruvchi,
kengash kotibi:**

Sh.Karimov

**Korrupsiyaga qarshi kurashish viloyat hududiy kengashining 2025 yil birinchi yarim yillikka mo‘ljallangan
ISH REJASI**

T/r	Tadbirlar nomi	Muddati	Mas’ul ijrochi
I. Targ‘ibot va tashviqot tadbirlari (<i>davra suhbatlari, seminarlar, anjumanlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar</i>)			
1.	<p>Viloyatdagi barcha ta’lim muassasalarida “Korrupsiya rivojlanishimizga to‘siq” mavzusida davra suhbatlari, ochiq darslar, ma’naviyat soatlarimi tashkil etib borish.</p> <p>Bunda, tadbirlarga Korrupsiyaga qarshi kurashish viloyat Kengashi a’zolari, viloyatdagi huquqmni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini jalb etish.</p>	Har oyda (alohida reja-jadval asosida)	<p>Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona viloyat boshqarmasi (M.G‘amiyev), Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov), O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasilar vazirligi viloyat hududiy boshqarmasi (T.Boymatov)</p>
